
HOKIM SAYYOR QABULDA

Qo'shtepa tumani hokimi Ilyos Novikovning navbatdagi qabuli tashkil etildi.

Ushbu sayyor qabul 21-fevral kuni G'ishtmon MFYda o'tkazildi. Tumanda istiqomat qiluvchi fuqarolar tomonidan suyultirilgan gaz baloni olish, tadbirkorlik qilish uchun kredit ajratish, eski yog'och tayanchlarni yangi beton stolbalarga almashtirish, ko'chalarni shag'allashtirish va boshqa masalalarda murojaatlar qilindi.

Qabulda hokim fuqarolar bilan yuzma-yuz suhbatlashib, ularning murojaatlarini birma-bir tingladi. Ular qo'ygan muammolar bo'yicha hokim o'rinbosarlari va boshqa tegishli tashkilotlar mutasaddilari ishtirokida zarur choralar ko'rildi. Ayrim murojaatlar shu kunning o'zidayoq hal qilingan bo'lsa, boshqa murojaatlarda ko'rsatilgan muammolarni hal etish yuzasidan tegishli idoralarning mutassadilariga aniq topshiriq va ko'rsatmalar berildi.



Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-02-21 18:31:17